

Date: 27th October-2025

MEHNAT MUNOSABATLARIDA HUQUQIY ONG VA HUQUQIY
MADANIYATNING O'RNI

Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna

NamDU dotsenti

Toxtasinova Barnoxon

Namangan davlat universiteti Yurisprudensiya yonalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatning mehnat munosabatlaridagi o'rni haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tamiz. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning rivojlanishi fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va yuridik shaxslar o'rtasidagi tuziladigan mehnat shartnomalarda qanday ahamiyatga ega hisoblanadi. Xususan huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'zi nima? Ushbu maqolada bu ma'lumotlar haqida fikrlarimiz bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, qonun, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, huquqiy savodsizlik, mehnat munosabatlari, mehnat shartnomasi, ish joyi, majburiy mehnat.

Аннотация: В данной статье мы кратко рассмотрим роль правосознания и правовой культуры в трудовых отношениях. Каково значение развития правосознания и правовой культуры в трудовых договорах, заключаемых между гражданами, лицами без гражданства и юридическими лицами? В частности, что такое правосознание и правовая культура? В данной статье представлены наши взгляды на эту информацию.

Ключевые слова: Конституция, право, правосознание, правовая культура, правовая безграмотность, трудовые отношения, трудовой договор, рабочее место, принудительный труд

Annotation: In this article, we will briefly provide information about the role of legal awareness and legal culture in labor relations. What is the importance of the development of legal awareness and legal culture in labor contracts concluded between citizens, stateless persons and legal entities. In particular, what are legal awareness and legal culture? This article presents our views on this information.

Keywords: Constitution, law, legal awareness, legal culture, legal illiteracy, labor relations, labor contract, workplace, forced labor.

Biz davlatimizda tinchlik va xotirjamlik bardavom bo'lishi uchun ham majburiyatlarimizni unutmasligimiz lozim. O'z huquqlarimizdan foydalanayotgan vaqtimizda boshqalarning huquqlarini ham hurmat qilishimiz joiz. Bu narsa bosh qomusimiz hisoblangan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham quyidagicha bayon etilgan. Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr- qimmatini hurmat qilishga majbur hisoblanadi.



Date: 27th October-2025



Xosirgi tsivilizatsion jarayonda mehnat munosabatlari tarixning har qanday bosqichidagi mehnat munosabatlaridan adolatli tashkil etilgan. Biz o'z huquqlarimizni to'liq bilmasligimiz oqibatidagina maqsadga erisholmaymiz.

Mehnat munosabatlari kirishish ham har bir fuqaroning Konstitutsiyaviy huquqi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq Har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmagan tarzda haq olish, shuningdek , ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalani sh huquqiga ega. Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.

Homiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarlarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Bundan kelib chiqib shuni ma'lum qilishimiz mumkinki O'zbekistonda har bir shaxs o'zi xohlagan kasbni egallashi, istaklariga munosib keladigan ish va ish joyini tanlash huquqiga ega. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning mehnat munosabatlaridagi o'rni ham aynan shu jarayonda katta ahamiyat kasb etadi. Har bir shaxs biror ishga kirishishdan oldin mehnat qonunchiligiga muvofiq mehnat shartnomasi tuzishi lozim.

Mehnat shartnomasi nima?

Mehnat shartnomasi-bu xodim va ish beruvchi o'rtasidagi taraflarning o'zaro huquqlari hamda majburiyatlarini belgilovchi kelishuv bo'lib, unga muvofiq xodim ish beruvchining manfaatini ko'zlab, ushbu kelishuvda belgilangan mehnat vazifasini uning rahbarligi va nazorati ostida shaxsan bajarish, ichki mehnat qoidalariga rioya etish majburiyatini, ish beruvchi esa xodimga shartlashilgan mehnat vazifasi bo'yicha ish berishi, xodimga ish haqini o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lash, mehnat to'g'risidagi qonunchilikda, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga va ushbu kelishuvda nazarda tutilgan mehnat sharoitlarini ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Har bir mehnat shartnomasi O'zbekiston respublikasi mehnat kodeksiga muvofiq yozma va ikki nusxada tuzilishi kerak. Mehnat shartnomasi bu yuridik fakt hisoblanadi, joyi kelganda dalil sifatida ham xizmat qilishi mumkin. Huquqiy ong va huquqiy madaniyati rivojlangan shaxslar mehnat shartnomasiga befarq bo'lmaydi.

Misol uchun Germaniyada ham shunday mehnat shartnomasi yozma tuziladi. Har ishchi mehnat shartnomasini yozma tarzda qo'lga oladi. U yerda mehnat inspeksiyalari doimiy nazoratni amalga oshirib boradilar. Ularda huquqiy ong juda rivojlangan va yuqori darajada kasaba uyushmalariiga birlashishadi va zarur hollarda sudga ham murojaat qiladilar.

Ish vaqti va mehnat xavfsizligi qat'iy qonun bilan tartibga solinadi.

Shvetsiya davlatida esa ish joylarida demokratiya tushunchasi mavjud. Xattoki ish beruvchilar bilan hodimlar o'zaro kelishilgan holda qarorlar qabul qiladilar. Shvetlarda huquqiy madaniyat kuchli: o'quvchilar maktabdan boshlab mehnat huquqi asoslarini o'rganadilar.

Date: 27th October-2025



Huquqiy ong va huquqiy madaniyatining rivojlanishi mehnat munosabatlarida barqarorlikni ta'minlaydi. Huquqiy ongi va madaniyati bor inson har qanday ish faoliyatida o'z huquq va manfaatlarini himoya qila oladi. Huquqiy ongi rivojlangan shaxs qonunchilikda belgilangan huquq manfaatlaridan shu bilan bir qatorda o'z burchlaridan ham habardor bo'ladi. Qonunchilikdan habari bo'lgan insonlardan huquqbuzarliklar chiqishi ehtimoli juda kam hisoblanadi. Chunki qiladigan ishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ehtimoliy holatlarini juda yaxshi biladi. Deylik bu holatni mehnat shartnomasiga bog'lab bir huquqbuzarlik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ehtimoliy holatlarini o'rganib chiqaylik

A ismli shaxs bilan B ismli shaxs mehnat shartnomasi tuzgan edi. Biroq B ismli ish beruvchi ish haqini o'z vaqtida bermadi. Bundan norozi bo'lgan A ismli shaxs ish haqini talab qilgach orada kelishmovchilik chiqdi va A ismli shaxs jahl ustida unga yengil tan jarohati yetkazib.

Savol bu holatga qanday qarash mumkin?

Biz bu holatga huquqiy jihatdan qarab ko'raylik agar A ismli shaxsning huquqiy ongi va madaniyati bo'lganda edi u o'zboshimchalik bilan bu muammoni hal etishga harakat qilmagan bo'lar edi. Aksincha hotirjamlik bilan muammoga yechim topishi mumkin edi. Ya'ni agar mehnat shartnomasida nazarda tutilgan ish haqi o'z vaqtida berilmasa O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksiga muvofiq ish haqini talab qilish huquqi borligini bilgan bo'lar edi. Bu muammoni hal etish vakolatli organga avvalo mehnat nizolari bo'yicha komissiyaga yoki bevosita fuqarolik ishlari bo'yicha sudga ham murojaat qilib ish haqini undirib olish mumkinligini aksincha uning foydasiga ham hal bo'lishi mumkin edi sud har ikki tomonni o'rganib chiqib A ismli shaxsning ish haqini to'liq miqdorda qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda A ismli shaxsning ish haqi kechiktirilgan Har bir kun penya (kompensatsiya) ham undirib berishi mumkin edi.

A ismli shaxsning huquqiy savodsizligi yoki shoshqaloqligi deylikmi jahl ustida B ismli shaxsga yetkazgan tan jarohati tufayli endi unga ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik kelib chiqishi mumkin. Albatta bu javobgarliklardan qay biri qo'llanilishi esa sud tibbiy ekspertizasiga bog'liq hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ma'lum qilishim mumkinki, huquqiy savodsizlik juda og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun ham har bir shaxs qonunchilikda bo'layotgan o'zgarishlardan va ularda ko'rsatilgan huquq va majburiyatlaridan doimiy habardor bo'lishi kerak. Xabardor bo'lish bilan bir qatorda qonunlarni hurmat qilishimiz ularga itoat qilishimiz joiz. Huquqiy ong birgalikda albatta huquqiy madaniyatimizni ham rivojlantirishimiz kerak deb o'ylayman. Biz shu qadar aql bilan bilan ish qilaylikki o'zimiz va yaqinlarimizga zararamiz tegmasin. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat bir-biri bilan shu darajada bog'liqki ular bir-birini to'ldirib turadi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat nafaqat mehnat munosabatlarida har qanday huquqiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu xolatlardan kelib chiqib huquqiy ong va huquqiy madaniyat o'zi nima degan savolga javob berib o'tishimiz lozim deb o'ylayman.

Date: 27th October-2025

Huquqiy ong va huquqiy madaniyat haqida turli manbalarda turlicha ma'lumotlar uchraydi. Huquqiy ong bu-ijtimoiy ongning shakllaridan biri bo'lib, kishilarda huquqqa, qonunchilikka, huquqiy tartibotga va boshqa huquqiy hodisalarga nisbatan bo'lgan g'oyalar, his tuyg'ular va tasavvurlar yig'indisidir.

Huquqiy ong deganda har bir insonning qonunchilikda bo'lgan huquq va majburiyatlaridan habardor bo'lishi tushuniladi. Ya'ni o'sha qonunchilikka bo'lgan his tuyg'ularini, istaklarini va qonunchilikka bo'lgan huquqiy qarashlarini tushunsak ham bo'ladi.

Huquqiy madaniyat -bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati huquqlarni hurmat qilishi va ularga rioya qilishidir. Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki huquqiy madaniyat bilan huquqiy ong chambarchas bog'liq hisoblanadi. Huquqiy ong orqali odamlar qonunchilikda ko'rsatilgan huquq va majburiyatlaridan habardor bo'lsa. Huquqiy madaniyat bilan o'sha qonunchilikda ko'rsatilgan majburiyatlarga itoat qiladi, buzilgan huquqlarini esa madaniyat bilan himoya qila oladilar.

Biroq shuni ta'kidlashimiz joizki insonlar doim huquqlarini eslab qoladilar, burchlarini suiiste'mol qiladilar.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, avvalo insonlar o'z huquqlarini bilishda o'qib izlanishlari, tafakkur bilan ish yuritishlari maqsadga muvofiq. Shuningdek, burchlarini ham bajarishlari shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi 2023-y 30 aprel
2. Davlat huquq nazariyasi Sh.A.Saydullayev 2021-y Toshkent <<Yuridik adabiyotlar publish>> 109-bet 116-bet
3. Mehnat huquqi Darslik. M.Usmanova, Sh.Gaziyev, B.Yarashev.-Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2024-y 120-bet
4. Саидисаков Саидахроп Саидакрамович. [ТИЛ БИЛМОҚ-ЭЛ БИЛМОҚДИР](#). SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 7 (2), 191-194
5. Саидисаков Саидахроп Саидакрамович. Эмотивное значение и категория эмотивности. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. www.bestpublication.org. 7 – ТОМ 2 – SON / 2024 - YIL / 15 – FEVRAL.198-203
6. Саидисаков Саидахроп Саидисакович. РОЛЬ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ В ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА. О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.05.2025. 40-SON. 206 -211
7. Саидисаков Саидахроп Саидисакович. PEDAGOG RESPUBLIKA ILMIY JURNALI. "ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИЗУЧЕНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА". 8 – ТОМ 5 – SON / 2025 - YIL / 15 – MAY. 193-197

